

«TEMUR TUZUKLARI» ASARIDA DAVLATI BOSHQARUVI  
VA MA’NAVIYATI

*Masharipov Zafarbek Normatovich*

*O’zbekiston Respublikasi II Vning Xorazm akademik litseyi*

*Huquqshunoslik fani o’qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada buyuk sarkarda bobomiz Amir Temurning jahon tarixida qilgan buyuk ishlari, davlati boshqaruvi va ma’naviyatida «Temur tuzuklari» asarining ahamiyati haqida ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so’zlar:** Amir Temur, «Tuzukot», «Temur tuzuklari», Sayyid Mir Kulol, Sayyid Baraka, Ibn Arabshoh, Nizomiddin Shomiy, Sharafuddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarkandiy, Davlatshoh Samarkandiy, Klavixo, «Rosti - rusti».

**Аннотация:** В статье содержатся сведения о великих делах нашего прадеда Амира Темура в мировой истории, значении труда «Законы Темура» в управлении и духовности его государства.

**Ключевые слова:** Амир Темур, «Тузукот», «Тузуклари Темур», Сайид Мир Кулол, Сайид Барака, Ибн Арабшах, Низамиддин Шами, Шарафуддин Али Язди, Абдураззак Самарканди, Давлатшах Самарканди, Клавихо, «Рости-Русти».

**Annotation:** The article contains information about the great deeds of our ancestor Amir Temur in world history, the importance of the work "Temur's Laws" in the governance and spirituality of his state.

**Key words:** Amir Temur, "Tuzukot", "Tuzuklari Temur", Sayyid Mir Kulol, Sayyid Baraka, Ibn Arabshah, Nizamiddin Shami, Sharafuddin Ali Yazdi, Abdurazzaq Samarkandi, Davlatshah Samarkandi, Klaviho, "Rosti - Rusti".

### Kirish

Buyuk sarkarda sohibqiron Amir Temur XIV asrda buyuk temuriylar davlatiga asos soldi. 1,5 mln. kv. km hududda - O’rta Osiyo, Qozog’iston, Shimoliy Kaspiy, Shimolda Ural, G’arbda Sibir, Sharqda Markaziy Qozog’iston va Tyanshan janubiy etaklari, Pomir tog’liklari, Kopettog’ oldi hududlarida o’z imperiyasini tuzdi. 27 ta podshohlikni o’zining qo’l ostida birlashtirdi.

Amir Temur Xitoy chegaralaridan boshlab to Sharqiy Rum va Misr yerlarigacha bo’lgan hududlarni islom bayrog’i ostida yagona davlatga birlashtirdi. Sohibqiron tomonidan barpo etilgan markazlashgan mustahkam davlat qariyb 1,5 asr o’z kuchini ko’rsatdi. Bu esa uning adolat va shariat asosida qurilgani, ustozlari, pirlari Sayyid Mir Kulol, Sayyid Barakalar o’gitlariga amal qilgani bilan izohlanadi[1].

Ma’naviy ildizlarimizdan biri bu Temur ma’naviyatidir. Bu qudratli manba insoniyat tarixida tengi yo’q markazlashgan davlatchilikka, qonunchilikka asos solish

bilan yer yuzining deyarli hamma mamlakatlarida o'rganilib, hozirgi kunda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biz faqat hozirgi kunga kelgandagina bu ma'naviyatni naqadar zarur ekanligini va buyuk kelajak sari qadam tashlayotgan xalqimiz uchun nihoyatda qadrli ekanligini anglamoqdamiz [2].

“Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” degan muhim tamoyilni amalga oshirishda biz avvalo ana shu ijtimoiy institutlarning kuch va imkoniyatlariga tayanamiz [3].

### Asosiy qism

Amir Temur insonni qadrlay oladigan va uni farqlay oladigan ulkan arbob edi. Musulmonchilikda, «eng yahshi kishining ikki qo'li ham to'g'ri bo'ladi, u bir qo'li bilangina emas, ikki qo'li bilan ham yahshilik qiladi», degan hikmatli ibora bor. Amir Temur do'stiga ham, dushmaniga ham ana shunday ikki qo'li bilan yahshilik qildi. Qolganlarni ham shunga undadi. «Tuzukot» da ham, tarixiy asarlarning mualliflari Ibn Arabshoh, Nizomiddin Shomiy, Sharafuddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Davlatshoh Samarqandiy asalarida ham, Klavixo kundaligida ham buni yaqqol ko'rish mumkin.

Amir Temur «Temur tuzuklari» asarida mamlakatlarni idora etishida qo'llanma bo'lishi uchun o'zi qo'llagan ishlarni **o'n ikki tuzukka** jamlagan. Ular quyidagilar:

**Birinchi tuzuk:** islom dinini qo'llab-quvvatlash;

**Ikkinci tuzuk:** aholining o'n ikki tabaqa va toifasini qo'llab-quvvatlash, ular bilan maslahatlar qilish;

**Uchinchi tuzuk:** saltanat ishlarini muruvvat, sabr-toqat, murosa yo'li bilan yurgizish;

**To'rtinchi tuzuk:** saltanat ishlarini to'ra va tuzukka asoslangan holda boshqarish;

**Beshinchi tuzuk:** harbiylarni munosib (unvon, oltin-kumush bilan) taqdirlab turish (Amir Temur ularning ko'magida 27 podshohning taxtini egallaganiga alohida e'tibor qaratgan); saltanat ishlarida o'z halovatidan voz kechish;

**Oltinchi tuzuk:** adolatli, insofli, kechirimli (ziyon yetkazganlarga ham) bo'lish;

**Yetinchi tuzuk:** o'qimishli, oqil kishilarning hurmatini joyiga qo'yish, miskinlarga yordam berish, g'iybatchilarni o'zidan uzoq tutish;

**Sakkizinchi tuzuk:** boshlagan ishni oxiriga yetkazish, g'azab qilmaslik, tarixda o'tgan sultonlarning qonun, turish-turmushlarini o'rganish, xulosalar chiqarish; zulmu buzuqchilikdan saqlanish;

**To'qqizinchi tuzuk:** har bir diyor aholisining ahvolidan ogoh bo'lishda mahalliy xalq mentalitetini inobatga olish;

**O'ninchchi tuzuk:** o'ziga xayrixoh bo'lган har qanday insonga hurmat ko'rsatish; xatosini anglab kelgan adashganlarga ham muruvvat ko'rsatish;

**O'n birinchi tuzuk:** martabaga erishganda yelkadosh bo'lганlarning xizmatini

unutmaslik (mol-u mulk, naqd pul bilan);

**O'n ikkinchi tuzuk:** do'st-dushmanligiga qaramay sipohlarni hurmat qilish; xiyonatkorlarga ishonmaslik [4].

O'n ikki tuzukka tayanib, mamlakatning o'n ikki toifa kishilari bilan munosabat to'g'ri yo'lga qo'yib sultanat ishlarini olib borgan Amir Temur mamlakatni o'z tasarrufida saqlab turish uchun yana o'n ikki amalni ham o'ziga shior qilib oladi. Ular quyidagilar:

Birinchidan – podshoh o'z so'ziga ega bo'lishi, ya'ni uning so'ziga hech kim daxl qilmasligi kerak.

Ikkinchidan – podshoh adolatparvar bo'lishi; qoshida insofli, adolatli vazirlarni tutishi (bundan maqsad podshohga adolatparvarlik borasida yelkadosh bo'lish);

Uchinchidan – podshohning chiqargan hukmiga hech kim aralashmasligiga erishish;

To'rtinchidan – podshoh o'z qarorida qat'iy bo'lishi;

Beshinchidan – podshoh hukmining joriy etilishiga, amalga oshirilishiga erishish (garchi kimdir hukmni zararli deb bilsa ham);

Oltinchidan – podshohlik ishlarini tamoman boshqaga topshirib qo'ymaslik (bunda dunyo bevafo xotinga o'xshatilgan), bu ishlarni ishonchli bir necha kishiga bo'lib berish;

Yettinchidan – podshohlik ishlarida har kimning fikrini eshitib, ko'ngli xushlagan foydalirog'ini vaqtida ishlatishga erishish;

Sakkizinchidan – sultanat ishlarida boshqalarning so'zi va fe'liga qarab ish tutmaslikka erishish;

To'qqizinchidan – podshohlik haybati uning amr-farmonlariga boshqalarning qarshilik qilishga jur'at etolmasligiga erishish;

O'ninchidan – podshoh har qanday ishni o'z erkicha qilishga erishish;

O'n birinchidan – podshohlik ishlarida hech kimni o'ziga sherik bo'lmasligiga erishish;

O'n ikkinchidan – podshoh o'ziga yaqin kishilarning holidan xabardor bo'lib turishi, ya'ni sotqinlik, jouslik va g'iybatning oldini olishga erishishi kerak [5].

Temur o'z faoliyati davomida Olloh buyurgan oliy insoniy fazilatlarga astoydil amal qildi. Temur o'z farzandlariga qilgan vasiyatda shunday deydi: «... Millatning dardlariga darmon bo'lmoq vazifangizdir. Zaiflarni qo'ring, yo'qsillarni zanginlar (boylar) zulmiga tashlamang. Adolat va yillik (yahshilik) qilmoq dasturingiz va rahbaringiz bo'lsin». Adolatni shunchalik qadrlagan hukmdor albatta xalq orasida katta obro'-e'tiborga ega bo'lishi tabiiy hol edi.

Temurning «Kuch-adolatda» degan so'zi haqiqatda shiorga aylanib, hamma davrlar uchun jaranglab turuvchi ibora tusini olganligini shohidi bo'lishimiz mumkin.

Amir Temur markaziy davlat tizimini ixcham va ishchan qilib tuzdi, bunda songa

emas, sifatga e'tibor berdi.

Davlat siyosatini belgilashda va uni amalda hayotga tatbiq etishda naqshbandiya tariqati g'oyalarini ifodalovchi «Rosti - rusti» qoidasi asos qilib olindi. Sohibqiron bu g'oya'ni takomillashtirib, «Kuch - adolatdadir» degan mashhur hamda shu davrgacha davlatlar tajribasida ommaviy qo'llanilmagan qoidani kashf etdi. Davlat ishiga iymonli, diyonatli kishilami o'tqazdi. Davlatni boshqarishni 4 omilga bog'liq deb bildi: 1. Saltanat. 2. Xazina. 3. Qo'shin (sipoh masalasida). 4. Raiyat (qora xalq). Saltanatni yuritishda vazirlar masalasiga e'tibor qaratildi. Vazir 4 sifatga ega bo'lishi shart bo'gan. Bular: 1) asllik va toza nasllik; 2) aql- u farosatlilik; 3) raiyat va sipoh ahvoldidan bohabarlik; 4) sabr-toqatlilik va tinchliksevarlik [6].

Davlatni mustahkamlash, jamiyatni rivojlantirish borasida ijro etuvchi tizim vazirliklarning o'rni muhim bo'lgan Amir Temur davrida siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, madaniy munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yib, ulardan jamiyat manfaati yo'lida foydalanish uchun qat'iy intizomga asoslangan, talabchan ijroiya mexanizmi zarur edi. Sohibqiron ana shunday tizimni yarata olgan [7].

Amir Temur saltanatining ijro etuvchi tizimidagi sakkiz vazirlik va yana bir necha muassasalar moliya, soliqlar, daromad va xarajatlar, mulkchilik, yetishtiriladigan hosil, chorva, yaylovlar ahvoli, obodonchilik, xabar va pochta, harbiy va adliya sohalarini boshqargan. Masalan, harbiy ishlar vazirligi harbiylarga maosh berish, ularga tegishli mulklarni boshqarish, qurol-aslaha ta'minoti, harbiy mashqlarni tashkil etish kabi vazifalar bilan bir qatorda, iste'foga chiqqan, urushda yarador bo'lib, mehnat qobiliyatini yo'qotganlarga nafaqa belgilash kabi yumushlarni ham bajargan.

Atoqli rus olimi D.Logofet "Temur tuzuklari"ni o'rganib, unga Turkistonda Yevropadan 500 yillar oldin vujudga kelgan Konstitutsiyaviy kodeks, boshqacha aytganda, Amir Temur saltanatining Konstitutsiyasi, deb yuksak baho bergen. Binobarin, mustaqillikning dastlabki yillari – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi loyihasining muhokamasi davrida Asosiy qonunimizni "Tuzuklar" deb atash tavsiya etilgani ham bejiz emas [8].

Sohibqiron Amir Temur o'z zamonasining talab-ehtiyojlaridan kelib chiqib davlat boshqaruvini takomillashtirdi, unga yangicha ruh va mazmun berdi. Davlatning tarkibiy tuzilishi harbiy-siyosiy tartiblarga asoslangan bo'lsa-da, jamiyat rivoji, barcha ijtimoiy tabaqalarning manfaatlarini ta'minlash nazarda tutilgan edi.

### Xulosa

Sohibqiron Amir Temur ilgarigi davrlardan farqli holda, jamiyatdagi barcha tabaqalarning haq-huquqlari va manfaatlarini inobatga olib, ularning hayoti uchun zarur ijtimoiy zaminni vujudga keltirgan. Har bir toifaning haq-huquqlari, burch va majburiyatlar o'ziga xos qonun bilan kafolatlab qo'yilgan.

Amir Temurning ulkan xizmatlaridan yana biri – davlat boshqaruvini tashkil qilish bilan bog'liq. Hokimiyatning qonun chiqaruvchi va ijroiya tarmoqlariga

bo‘linishiga asoslangan mazkur tizimni joriy etishda Amir Temur ko‘r-ko‘rona emas, balki o‘zi yashab turgan voqelikni nazarda tutgan holda ish yuritgan.

Taniqli tarixchi olim Azamat Ziyoning fikricha, bu tizimda sultanat darajasiga ko‘tarilgan davlatning jo‘g‘rofiy hududlari doirasida yashovchi xalqlarning turmush tarzi, an’analari, ma’naviy-ruhiy ehtiyojlari ham inobatga olingan. Davlat boshqaruvi tizimiga Amir Temur olib kirgan yangilikning mohiyati ham aslida shu bilan belgilanadi.

2017-yil 30-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Kamolot" yoshlari ijtimoiy harakatining IV qurultoyida so‘zlagan nutqi davomida yoshlarga harbiy ta’lim-tarbiya beradigan kursantlar maktablariga "Temurbeklar maktabi deb nom berish taklifini ilgari surdi va ushbu taklif yoshlar tomonidan mammuniyat bilan qabul qilindi.

Amir Temur davlati qurilishi, harbiy san’ati ko‘p asrlar davomida Sharq va G’arb davlatlariga o‘rnak va andoza bo’ldi. Uning zamonida madaniyat, ilm-fan, me’morchilik, tasviriy san’at, musiqa she’riyat beqiyos rivoj topdi, xalqimizning ko‘p an’analari takomiliga yetdi. Amir Temurning madaniyat va din axillariga ko’rsatgan cheksiz mehr-muruvvati ayniqsa ibratlidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T.: O‘zbekiston, 1998..
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - engilmas kuch. -T.: Ma’naviyat, 2008.
3. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – T.: “O‘zbekiston”, 2016.
4. Temur tuzuklari. -T.: “Shodlik nashriyoti”, 2018.
5. Mo‘minov I. Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli. -T.: Fan, 1993.
6. Ahmedov B. Sohibqiron Temur (hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati). -T.: Fan, 1996.
7. Muhammadjonov A. Temur va temuriylar davri. –T.: Fan, 1996.
8. <https://parliament.gov.uz>